

## INSON QO'L YOZUVI STRUKTURASI TIZIMI TUZILISHINI O'RGANISH VA UNING KRMINALISTIK TADQIQOTLARDAGI AHAMIYATI

*J.H Mirzaqulov - O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 2-o'quv kursi  
Ekspert-kriminalistika faoliyati 225-guruh kursanti*

### Аннотация

Ushbu maqolada inson qo'l yozuvi harakati strukturasi tadqiq etish va ularadan foydalanish xususiyatlarining hozirgi kundagi ahamiyati, xatshunoslik ekspertizasining paydo bo'lish tairixi, tasniflanishi, obyektlari hamda identifikatsion va diagnostik tadqiq qilishning o'ziga xosligi haqida so'z yuritilgan

Bundan tashqari xatshunoslik ekspertizasi obyektlarini diagnostik tadqiq etish va ulardan foydalanish xususiyatlariga oid amaliy tajribalarni aniqlash metodikasining zamonaviy ahamiyati haqida mavjud muammo hamda yechimlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Xatshunoslik, xatshunoslik ekspertizasi, yozuv, imlo, xat, identifikatsiya, diagnostika, imzo, situation, ekspert-kriminalist.

### Annotation

This article talks about the current importance of the study of the structure of human handwriting movement and the characteristics of their use, the history of the emergence of handwriting expertise, classification, objects, and the uniqueness of identification and diagnostic research.

In addition, the current problems and solutions are mentioned about the modern significance of the diagnostic research of the objects of epistolary expertise and the practical experience of determining the characteristics of their use.

**Key words:** Correspondence, correspondence examination, writing, spelling, letter, identification, diagnosis, signature, situation, forensic expert.

### Аннотация

В данной статье говорится о актуальности изучения структуры движения почерка человека и особенностях их использования, истории возникновения почерковедческой экспертизы, классификации, объектах, своеобразии идентификационно-диагностического исследования.

Кроме того, упоминаются актуальные проблемы и решения, о современной значимости методики диагностического исследования объектов эпистолярной экспертизы и практического опыта определения особенностей их использования.

**Ключевые слова:** Переписка, заочная экспертиза, написание, орфография, письмо, опознание, диагноз, подпись, ситуация, судебный эксперт

## KIRISH

Taxminan 6000 yil davomida odamlar tilning yozma shakli - qo'lyozmani tashkil etuvchi ilmoqlar, chiziqlar va boshqa belgilar orqali tarixda o'chmas iz qoldirdi. Qo'l yozuvini o'rganish ham xatshunoslik ekspertizasi fanining muhim qismidir. Qo'lda yozilgan dastxat yoki imzoning xususiyatlarini tahlil qilish orqali ushbu ekspertiza obyekti kim tomonidan, qanday holatda, qanday sharoitda yozilganligi to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini beradi. Insonning barcha harakatlarida bo'lgani kabi, qo'l yozuvi harakatida ham uning ekspert tomonidan tekshiruv, tadqiqot o'tkazish jarayonlari ham xatolardan himoyalalanmaydi.

**Yozuv** - tilning matn orqali ifodalanishiga aytiladi. Yozuv rasm yoki magnitli audiyozuv kabi matnmas ifodalovchi yoki til saqlovchi vositalardan farqlanishini e'tiborda saqlashimiz lozim.

**Imzo** – familyaning biror-bir hujjat yoki xatdagi o'z qo'li bilan yozilgan grafik tasviri hisoblanadi. Yozuvchining xususiy belgisi sifatida imzo ham xat kabi shaxsni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sud xatshunoslik ekspertizasi tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yozuvning paydo bo'lishi va uning taraqqiy etishi haqida turli xil nazariyalar mavjud. Xususan, eng ko'p tan olingan yondashuvlardan biri haqida aytib o'tadigan bo'lsak, yozuv - kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biridir. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan ya'ni tovush tili 400—500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan bo'lsa yozuvning paydo bo'lganiga esa 4—5 ming yillar bo'lgan. Og'zaki til (nutq)ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to'lqinlari yetib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozuv dunyoga keldi. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda inson qo'l yozuvlarini o'zgartirish hamda ularga fizikaviy, mexanik, kimyoviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan imzo va dastxatlarni soxtalashtirish orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ularni fosh etish, ochish hamda oldini olish dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rilayotganligi va

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud amaliyotidagi mavjud muammolarni hisobga oladigan bo'lsak, ushbu ekspertiza turi hamda tadqiqotlarining ahamiyatini anglab olishimiz mumkin.

Yozuv haqidagi bilimlar sud xatshunoslik ekspertizasi tadqiqotlarining obykti sifatida o'ziga quyidagi tarkibiy qismlarni oladi:

1. Yozuv va dastxat tushunchalari;
2. Odamning ko'nikmalarini yozma-harakat FDM (funksional dinamik majmui)ni shakllanish va amalga oshirish asoslari;
3. Yozuv (dastxat)ning asosiy kriminalistik xususiyatlari.

Sud xatshunoslik ekspertizasining bevosita obykti insonning murakkab ko'nikmalaridan biri – yozuv ko'nikmasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan dastxat hisoblanadi.

Hozirgi kunda kriminalistika tadqiqotlari amaliyotida inson qo'l yozuvi harakati strukturasi tizimi tuzilishini va uning kriminalistik tadqiqotlardagi yozuv (dastxat)ni muallifini aniqlash (identifikatsiyalash)da va uning yozilish sharoiti hamda holatini aniqlashda yozuv (dastxat)ning umumiy va xususiy alomatlariga asosan situatsion, identifikatsion shuningdek, diagnostic tadqiqotlari keng qo'llanilmoqda.

Yozuv (dastxat)ni situatsion, identifikatsion shuningdek, diagnostic tadqiqotlarini o'tkazish uchun asosan uning xususiy alomatlariga e'tibor qaratish lozim. Bu alomatlar turli xil obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq xolda yuqori darajadagi turg'unlikka ega. Harakatlarning o'ziga xosliklarining majmuasi ekspertning qo'lyozma muallifini aniqlashga imkon beradi. Ekspert-kriminalistlar harflar, sonlar, tinish va matematik belgilarni “*belgilar*” deb ataydilar.

Dastxatning xususiy alomatlarini o'rganishda, birinchi navbatda, e'tiborni yozuv belgilarining elementlarini bajarishdagi harakatlarning g'ayriodatiy ravishda xusnixat yozuvlaridan og'ishlariga qaratmoq kerak. Yozuvning barcha xususiy alomatlari murakkabligi, shakli, yo'nalishi, elementlarning soni, ularni bajarishda harakatlarning ketma-ketligi, harflarni bajarishda va bog'lashda harakatlarning uzluksizlig darajasi, harakatlarning nisbiy joylashishi bo'yicha tadqiqotchi ekspert-kriminalist tomonidan taxlil qilinadi.

Harflarni bajarishdagi harakatlarning murakkabligi – yozuv (dastxat)ning barcha xususiy alomatlarida eng “umumiy”sidir. Shuning uchun uning tadqiqoti alomatlarning shu guruhini tahlil qilishdan boshlanadi. Solishtirilayotgan dastxatlarda bu alomatlarning farqi ko'p hollarda ekspertga keyinchalik boshqa xususiy alomatlarni taxlil qilmasdan turib, tenglik mavjud emasligi to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi. Bunday xususiy alomatlarga quyidagilar kiradi:

- Harflarni bajarishdagi harakatlarning murakkabligi;
- Harakatlarning shakli (to'g'ri yoki egri chiziqli bo'lishi mumkin);
- Harakatlarning yo'nalishi;
- Harakatlarning cho'zilganligi (vertical yoki gorizontal);
- Harakatlarning bog'lanish turi (qog'oz qurolini qog'oz yuzidan uzlish chastotasiga bog'liq ravishda);

- Harakatlarni nisbiy joylashishi yozuv belgilari va ularning elementlarini bajarishdagi boshlang'ich va yakunlash nuqtasiga ko'ra;
- Harflar va ularning elementlarini bajarishda gorizontaal va vertikal bo'yicha harakatlarning joylashuvi (yuqorida, pastda, xat chizig'ida) va boshqalar.

O'zgartirilgan yozuv (dastxat) orqali sodir etilyaotgan g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etilish darajasi ko'rsatkichlarining joriy yillarda keskin oshib ketayotganligi holatlarini inobatga olgan holda xatshunoslik ekspertizasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan *o'zgartirilgan xatni tadqiq qilishning* zamonaviy tadqiqotlarini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Dastxatni o'zgartirishning ikki shakli mavjud bo'lib, ular dastxatning tabiiy o'zgarishi va dastxatning atayin o'zgartirilgan dastxat hisoblanadi.

1) Dastxatni tabiiy buzuvchi bir qancha omillar bo'lib, ularga:

- Xatning g'ayriodatiy tashqi sharoiti (o'zgartirilgan holat, o'ziga xos bo'lmagan yozuv quroli, yetarli bo'lmagan yoritilganlik);
- Yozuvchini ichki holati (bosh-miya jarohatlari, funksional holati-toliqish, tormozlanish, ko'rish qobiliyatini yetishmasligi va b.);
- Yozuvchining o'z dastxatini o'zgartirish xohishi bilan bog'liq bo'lmagan g'ayriodatiy yo'l tutishi (xafsala, sekin yoki tez yozuvli xat)

2) Dastxatni atayin o'zgartirilishi – xatning atayin o'zgartirilishi yozuvchida mavjud bo'lgan yozma harakat ko'nikmasining o'zgarishi bilan bog'liq. Yozuvdagi harakatlarni stereotipligini aniqlovchi ko'nikma tizimi butunlay buzilmaydi va oxirgisi saqlanib qoladi. Atayin o'zgartirilgan dastxat bilan bajarilgan qo'lyozmalarda alomatlarining ikki nguruhi aks ettiriladi – stereotip harakatlarning buzilishi natijasida paydo bo'lgan “o'zgargan” va yozuvchining oddiy dastxatiga xos “o'zgarmagan”. Xat atayi o'zgartrilganda, yozuvchi dastxatning umumiy va muayyan xususiy alomatlarini o'zgartiradi. Shuningdek, ba'zan yozma nutqning stilistik, leksik, grammatik alomatlari ham atayin o'zgartirilishi mumkin.

O'zgartirilgan dastxat bilan bajarilgan xatda matnning boshlang'ich qismiga nisbatan keying qismlari tezroq bajarilishini ekspert hisobga olishi kerak. Bunday alomat juda ham ahamiyatli, chunki o'zgartirilmagan dastxatda u uchramaydi. Dastxatning alohida xususiy alomatlari o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Ko'proq buzilishlar quyidagi harflarda kuzatiladi:

- “b”, “d”, “j”, “m”, “x” harflarida;
- “j”, “l”, “m”, “i” harflardagi elementlarni bog'lashdagi harakatlarning shakli;
- “b”, “d”, “r”, “sh”, harflaridagi elementlarning boshlang'ich qismlarini bajarishdagi harakatlarning shakli.

Atayin o'zgartirilgan dastxat bilan bajarilgan qo'lyozmalar tadqiqotida ekspert, avvalambor, yozuvchi o'z dastxatini o'zgartirganini aniqlaydi, ya'ni qo'lyozmaning g'ayriodatiy shart-sharoitlarda bajarilganligini o'rganadi. Dastlab bu savolni ekspert

hujjatni ko'zdan kechirganda va alohida tadqiqotlarning boshida hal qiladi. Dastxatning umumiy alomatlariga e'tibor qilganda, alohida harakatlarning koordinatsoiyasi va bajarish sur'ati, avtomatlashgan harakatlar bilan bajarilgan qo'lyozmaning alohida qismlari aniqlanishi va o'rganilishi kerak. Shu bilan birga, avtomatlashgan harakatlar bilan bajarilgan lavxalar qo'lyozmada takrorlanishi lozim. Faqat bu holatda ekspert haiqiqiy ishlov darajasi va yozuvchining umuman dastxati to'g'risida to'g'ri xulosa qilish mumkin.

Buzilish usulidan qat'i nazar, atayin o'zgartirilgan dastxatlar uchun quyidagilar xosdir:

1) Butun hujjatda u yoki bu alomatga sun'iy kiritilgan o'zgartirishlar qatorida oddiy dastxatga xos bo'lgan variantlar. Yozuvchi quyidagi holda o'zini oddiy dastxatiga qaytadi: agar yozuvchi xatni yozuviga e'tibor berib grafik ustidan nazoratni yo'qotsa, hujjatni hajmi katta bo'lgani sabab, toliqish sabab va b;

2) Sun'iy ravishda kiritilgan variantlar tabiiilaridan, ularda qo'shib chizib qo'yishlar mavjudligi, ishonchsiz harakat alomatlari, yozuv qurolining to'xtab qolishi, qo'shimcha chizib qo'yishlar va analogik sekinlashuvlar;

3) Kopincha sun'iy ravishda kiritilgan harflarning variantlari o'zining grafiikasi bo'yicha o'zgarmagan harflardan farqlanadi. Ba'zan buzilgan harflardagi satr pastidagi elementlarning tabiiy bo'lmagan chizilib ketishi va boshqalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forensic Handwriting Examination and Human Factors: Improving the Practice Through a Systems Approach (*The Report of the Expert Working Group for Human Factors in Handwriting Examination 2020* Fevral);
2. Xatshunoslik ekspertizasi ma'ruzalar kursi (mas'ul moharrir yuridik fanlar nomzodi, dotsent T.B.Mamatqulov);
3. Xatshunoslik ekspertizasi (SH.Komilov, R.Maxmudov, Sh.Hasanov *Toshkent 2003*);
4. Kriminalistika darslik;
5. "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonun 1.06.2010 y. 250-sonli O'RQ;
6. Jinoyat-protsessual kodeksi.

#### INTERNET SAYTLARI

1. <http://akadmvd.uz> (Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси)
2. [http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси)
3. [http:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz) (Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети)
4. [http:// www.tuit.uz](http://www.tuit.uz) (Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот - технологиялари университети)
5. <http://195.158.18.42/> (Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси миллий нашрларнинг электрон архиви)